

11-sinf O'ZBEK TILI FAN BSB-4

**Loyiha ishi. Book trailerni taqdimot ko'rinishida yaratish. (Jalon adabiyotidan asar, roman, kichik hikoyalar ya'ni o'zlari sevib mutoala qilgan kitobdan book trailer tayyorlashi kerak, kitob treyleri namunasi ilovada berilgan.
Taqdimot plakat ko'rinishida bo'lishi kerak.)**

O'quvchilar uchun topshiriqlar:

Bosqich	Baholanadigan ko'nikma	Namuna
1	Asar treyleri uchun ssenariy tuza oladi	Asarni to'liq o'qib chiqish, rollarni taqsimlash va ssenariy ishlab chiqish
2	Asarga oid illyustratsiyalar yig'a oladi. (ssenariyga mos fragmentlar, rasmlar va h)	Asarga oid illyustratsiyalarni qidirish, saralash va qo'llash
3	Tuzilgan ssenariy asosida video tushira oladi	Ssenariy asosida videoga olish uchun joy va manzarani to'g'ri tanlay olish. O'zbek tilida xatosiz aniq va ravon gapira bilish, asar mazmunini ochib bera olish(videoda omonim, sinonim, antonim va ko'chma ma'noli so'zlardan foydalanish)
4	Video foni uchun musiqa tanlay oladi va montaj ishlay oladi	Tayyor bo'lgan videoga musiqa tanlash va montaj ishlarini olib borish
5	Tayyor mahsulotni taqdimot qila oladi	Tayyor mahsulotni taqdimot qila olish

O'qituvchi uchun tavsiya: O'quvchilar uchun berilgan topshiriqlarga vaqtlarni belgilab berishingiz kerak. O'quvchi taqdimotlari rasmga va tasvirga olinsa maqsadga muvofiq bo'lardi (qo'l telefonida)

Loyiha ishini baholash mezoni:

Nº	Baholanadigan ko'nikma	Maksimal ball	Diskriptorlar	Jami to'plangan ball
1	Asar treyleri uchun reja tuza olish, rollarni taqsimlash va ssenariy ishlab chiqish	10	Asar treyleri uchun reja maqsadga muvofiq tuzilgan bo'lsa – 7 ball, Rollar mos taqsimlangan bo'lsa – 3 ball.	
2	Asarga oid illyustratsiyalarni to'g'ri qo'llay olish	5	Mahsulotning kreativligi – 3 ball., Sifati, ko'rinishi talab darajasida bo'lsa – 2 ball.	
3	Ssenariy asosida videoga olish uchun joy va manzarani to'g'ri tanlay olish. O'zbek tilida xatosiz aniq va ravon gapira bilish, asar mazmunini ochib bera olish (videoda omonim, sinonim, antonim va ko'chma ma'noli so'zlardan foydalanish)	15	Tanlangan joy asarga mos kelsa– 3 ball. Nutqning sofligi va aniqligi – 10 ball. Grammatikaga – 2 ball.	
4	Tayyor bo'lgan videoga musiqa tanlash va montaj ishlarini olib borish	10	Reklama matni mazmuni – 5 ball. Iimloviy va uslubiy tarafdan to'g'ri yozilishi uchun – 5 ball.	
5	Tayyor mahsulotni taqdimot qila olish	10	Taqdimot etishdagi faolligi, ishtiroki va vaqtga amal qilgani uchun– 10 ball	
Jami		50		

Ilova: Buktreylerlar kitobxonni kitob mutolaasiga jalb qilishda zamonaviy usullardan biridir. Buktreyler videorolik yoki poster ko'rinishida bo'lishi mumkin. Asardagi eng kulminatsion, ya'ni kitobxonda qiziqish uyg'otuvchi sahnalarini o'zida jamlagan bo'lishi kerak.

Ilova:



